

RUS OLIMI A.N. SAMOYLOVICHNING SHARQ TILLARINI O‘RGANISHGA QO‘SHGAN HISSASI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653715>

Shaymanova Yulduz Toshniyazovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
"O‘zbek, rus tillari va adabiyoti" kafedrasida o‘qituvchisi

Qarshiboyeva Zuhra Abduvahobovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
"O‘zbek, rus tillari va adabiyoti" kafedrasida o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada Sharqshunos olim Aleksandr Nikolaevich Samoylovichning hayoti, ish faoliyati va qator yillarda Turkiy tillarni o‘rganishga doir O‘rta Osiyoda xususan Xorazmda olib borgan ilmiy ishlari va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

***Kalit so‘zlar:** Turkolog, Leksikologiya, fonetik xususiyatlar, turkiy adabiyotlar va adabiy tillar.*

ABSTRACT

The article deals with the life and work of the orientalist Alexander Nikolaevich Samoiloich and his scientific work on the study of Turkic languages in Central Asia, especially in Khorezm.

***Keywords:** Turkologist, Lexicology, phonetic features, Turkish literature and literary languages.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются жизнь и деятельность востоковеда Александра Николаевича Самойловича, и его научная деятельность по изучению тюркских языков в Средней Азии, особенно в Хорезме.

***Ключевые слова:** тюрколог, лексикология, фонетические особенности, тюркская литература и литературные языки.*

KIRISH

Olim turkiy tillar qurilishining nazariy muammolari ustida faol ish olib bordi. Uning lotin tili asosida turkiy tillarning yangi yozma tilning nazariy asoslarini ishlab

chiqishda, yangi yoziladigan adabiy tillarning shakllanishi rivojlanishi va ularning terminologiyasi muammolarini hal etishda, yangi sharq ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarini tashkil etishda hamda sharqshunos olimlarni tayyorlash o‘z hissasini qo‘shdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Rossiyalik sharqshunoslar qadimdan O‘rta Osiyo, aynan Xorazmga qiziqishib kelganligi tufayli ham, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o‘lkamiz chor Rossiyasi istibdodida bo‘lgani uchun, avvalgiga qaraganda rus sharqshunoslarining O‘rta Osiyoga kelib ilmiy ishlar qilishi osonlashdi.

Bu borada V. Bartol’d, P. Melioranskiy, A. Divaev, A. Kushkevich V. Radlov, N. Ostroumov singari ilmiy izlanuvchilar O‘rta Osiyoning turli sohalarida keng ko‘lamdagi salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. Ular orasida sharqshunos A. Samoylovichning Xorazm fol’klori borasida qilgan ishlari katta ahamiyatga ega.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Keng tarmoqli rus sharqshunosi Aleksandr Nikolaevich Samoylovich (12.17.29.1880-02.13.1938) Nijniy Novgoroddagi klassik erkaklar gimnaziyasi direktori oilasida tug‘ilgan. Bo‘ljak olim otasi Nikolay Yakovlevich Samoylovichning maslahati bilan 1899 yilda Sankt-Peterburg universitetining Sharq tillari fakultetiga arab-fors-turk-tatar yo‘nalishiga o‘qishga kiradi.

Aleksandr Nikolaevich Samoylovich sharq tillarini yaxshi o‘zlashtirishi, tirishqoqligi va zukko qobiliyati ortidan uzoq yillardagi keyingi taqdiri fakultet bilan bog‘liq bo‘lib, u yerda turk-tatar adabiyoti kafedrasiga ilmiy izlanishlarini davom ettirish uchun ishga qoldiriladi. Bo‘lg‘usi olim 1907 yildan boshlab mazkur oliygohda dars bera boshlaydi. 1915 yil boshida u nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi; 1917 yildan boshlab sharq tillari mutaxassisi kafedra professori etib faoliyat yurita boshladi. [2. 153]

A.N. Samoylovich o‘zning ilmiy faoliyatini juda ko‘p qismini o‘rta asr turkiy qo‘lyozmalarini mukammal o‘rgangan professional turkolog: tilshunos, dialektolog, ko‘hna qo‘lyozmalarni biluvchi, folklorshunos, etnograf va adabiyotshunos, O‘rta Osiyo-turk adabiyoti tarixchisi sifatida adabiy tillar matn tanqidi an‘analarini davom ettirdi va rivojlantirdi. Olim «Men uchun Sharqda bo‘lish, Vasilev orolida (Sankt–Peterburg) bo‘lishdan ko‘ra muhimroq. Men –Majnun, Turkiston –Layli. Tabiatimda musulmonlarga qandaydir yaqinlik bor va men ular bilan tez chiqisha olaman», – deb yozgan [3; 44]

Olim turkiy tillar qurilishining nazariy muammolari ustida faol ish olib bordi. Uning lotin tili asosida turkiy tillarning yangi yozma tilning nazariy asoslarini ishlab

chiqishda, yangi yoziladigan adabiy tillarning shakllanishi rivojlanishi va ularning terminologiyasi muammolarini hal etishda, yangi sharq ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarini tashkil etishda hamda sharqshunos olimlarni tayyorlash o‘z hissasini qo‘shdi.

A.N. Samoylovich SSSR Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi (1925 yil 2 fevral) va Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi (1929 yil 12 yanvar), deyarli bir vaqtning o‘zida - uning Gumanitar fanlar bo‘limining akademigi-kotibi hamda 1930-yil — Ijtimoiy fanlar bo‘limi akademigi-kotibi lavozimlarida faoliyat yuritdi. Olimning hayoti fojeali yakun topgunga qadar, SSSR Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti direktori vazifasini bajardi. 1937 yil oktyabr oyining boshida u panturkizm va "Yaponiya foydasiga josuslik"da ayblanib, qoralash bilan hibsga olingan. 1938 yil 13 fevral - SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi majlis qarori bilan otib tashlangan. Oradan 18 yil vaqt o‘tib, 1956 yil 25 avgustda Harbiy kollegiyaning 1938 yil 13 fevraldagi A.N. Samoylovichga nisbatan hukmi bekor qilindi va olimning qilgan ilmiy ishlari qayta tiklandi.

Leningradda 1973 yilda A.N. Samoylovich xotirasiga bagishlangan VI turkologik konferensiya turk tillarni o‘rganishga qaratilgan “Turkologik to‘plam.” Nashr etildi. (Turkologik to‘plam, 1974).

2005 yilda olimning fojiali o‘limidan deyarli 70 yil o‘tgach, bir jildlik "A.N. Samoylovich. Turkiy tilshunoslik. "Filologiya, Runika" (Samoilovich, 2005) nomli o‘zining noyob ikkita monografiyasi va ko‘plab maqolalari, arxiv qo‘lyozmalari va qoralama avtograflarda qolgan deyarli barcha muhim narsalari jamlagan kitobi birinchi marta hashrdan chiqdi. [1; 250]

Olimning turkiy tillarni o‘rganishga qaratilgan asarlari, qolyozmalari hozirgi kunda turkolog olimlar tomonidan dastutul amal bo‘lib xizmat qilmoqda. Keyingi tadqiqotlar ilmiy izlanishlar to‘planib borishi natijasi shuni ko‘rsatdiki, Turkiy tilning umumiy– morfologik, areal va tipologik xususiyatlarni o‘z ichiga olgan holda takomillashtiriladigan genetik jihatdan o‘zaro bir-biriga bog‘liq tillar tasnifini tuzishda fonetik xususiyatlarning hal qiluvchi roli haqidagi olimning fikrlari to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

- A. Samoylovich turkiy tillarni fonetik xususiyatlariga ko‘ra tasnif qilgan:
- ❖ 1.R guruhi: bulg‘or, chuvash tillari.
 - ❖ 2.D guruhi: uyg‘ur, shimoli-sharqiy turkiy tillar.
 - ❖ 3.Tau guruhi: oltoy, qirg‘iz, qumuq, qorachoy-balqar, qaraim, tatar, boshqird, qozoq, no‘g‘ay tillari.
 - ❖ 4. Tag‘liq guruhi: eski o‘zbek tili , hozirgi uyg‘ur va hozirgi o‘zbek tili.

- ❖ 5. Tag‘li guruhi: Xorazm o‘zbeklari, turkman-qipchoq tily lari.
- ❖ 6. O‘l (bo‘l-o‘l) guruhi: janubi-g‘arbiy turkiy tillar (ozar, turk, gagauz tillari). [4. 87], [5. 184.]

Olimning “Turk kardinal raqamlari va ularni talqin qilishga urinishlarning sharhi” maqolasida kardinal raqamlarga oid qiyosiy tarixiy ma‘lumotlarning qisqacha mazmuni keltirilgan va ularni etimologiyasini birlashtirishga urinishlar umumlashtirilgan. Aynan mana shunday izlanishlar qadimgi turkiy tillarni o‘rganishga bag‘ishlangan “Leksikologiya” kitobida olimning qadimgi turkiy matn mazmuniga chuqur kirib borish qobiliyatini ko‘rsatadi. Olim o‘z tadqiqotlarida turkman, usmonli turk, o‘zbek, krimtatar tillarining fol‘klori, etnografiyasi va adabiyoti bo‘yicha bir qancha mavzularda izlanishlar o‘tkazgan. A. Самойлович o‘zbek adabiy tili va klassik adabiyoti, fol‘klori hamda etnografiyasiga bag‘ishlangan 100 dan ziyod asarlar muallifidir. O‘zbek adabiy tilini rivojlantirish yo‘llarini tadqiq qilishda «Chig‘atoy adabiy tilida «jo‘qchilik» unsurlari», (1930 yil); «O‘zbek adabiy tilining qurilish yo‘llari haqida», 1932. «Navoiy tuyuqlari» (1917), «Chig‘atoylik Amiriy tuyuqlaridan» (1926), «Lutfiyning chig‘atoycha tuyuqlari» (1926), «19 asr Xiva tuyuqlari» (1927) asarlarida o‘zbek adabiyotida qo‘llaniladigan tuyuq janrlari va bir qancha xususiyatlari ochib berilgan. Bundan tashqari Atoiy va Bobur asarlarini o‘rganib tadqiq va nashr etish bo‘yicha ham qator ishlarni amalga oshirgan.

XULOSA

A. N. Samoylovich turkiy adabiyotlar va adabiy tillar tarixiga oid asarlarida 13-19-asrlardagi turli janrdagi yodgorliklarning eng keng doirasini xronologik jihatdan yoritgan. Mahalliy ilmiy turkologiyaning shakllanish yo‘llarini tushunish, A.N. Samoylovich XIX asrning 60-yillari oxiridagi delimitatsiya haqida. "Ikki maktab - eski va yangi" (RNB.F. 671. D. 149). Bu tezis birinchi bo‘lib shu yagona jildda nashr etilgan (123-bet).

Shunday qilib, A.N. Samoylovich o‘zining tadqiqot usullari va shaxsiy hissasi bilan nafaqat o‘zining zamonaviy mahalliy, balki jahon turkiy ilmiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan yetuk olimlardan biridir. Olimning olib borilgan tadqiqotlari hozirga qadar ham ilm-fan va yosh olimlar uchut dasturulamal bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

REFERENCES

1. Ашнин Ф.Д. Александр Николаевич Самойлович (1880-1938) // 2. Народы Азии и Африки. - М., 1963. - № 2. - С. 243-264.

2. Ашнин Ф.Д, Алпатов В.М. Архивные документы о гибели академика А.Н. Самойловича//Восток. - М., 1996. - № 5. - С. 153-162.
3. G. Xalliyeva. Adabiyotshunoslik. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2017.44 bet
4. Xolmanova Zulxumor Turdiyevna Tilshunoslik nazariyasi. Darslik. “Nodirabegim” nashriyoti Toshkent – 2019
5. Samoylovich A. Türk dillerinin siniflandirilmasına dair bazı eklemeler (А.Самойловичнинг 1922 йилда Петроградда нашр этилган «Некоторые дополнения к классификации тюркских языков» номли мақоласини проф. др. Меҳман Муса ўғли таржима қилган) // Dil araştırmaları. Uluslararası hakemli dergi-Ankara. 2007.- S.184.
6. Ашнин Ф.Д., Алпатов В.М., Насилов Д.М. Репрессированная тюркология. - М., 2002. - 296 с.
7. Благова Г.Ф. Из истории тюркской текстологии: А.Н. Самойлович - исследователь «Бабур-наме». - М., 1993. - 101 с.
8. Благова Г.Ф. Н.И. Ильминский и А.Н. Самойлович: Работа над «Бабур-наме» // Восток (Опеш). - М., 2005. - № 1. - С. 134-148.
9. Самойлович А.Н. Материалы по среднеазиатско-турецкой литературе: I // Зап.- вост. отд. Рус. археолог. о-ва. - М., 1910. - Т. 19, вып. 1. - С.1-30; Материалы по среднеазиатско-турецкой литературе: 2-3 // Там же. - М., 1914. - Т. 22, вып. 1-2. - С. 128-153; Материалы по среднеазиатско-турецкой литературе: 4 // Записки коллегии востоковедов при Азиат. музее РАН (АН СССР). - М., 1927. -Т. 2, вып. 2. - С. 257-274.
10. Абдуазизов А. Тилшуносликка кириш. I-қисм. Фонетика ва фонология. – Тошкент,1999. 7. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent, 2010. 8. Абдуазизов А.А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси– Тошкент: Университет, 2010.
11. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.
12. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching italian language in higher education institutions. Society and Innovation, 2(2), 111-117.
13. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.

14. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand.
15. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.
16. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In Mat. International scientific and creative forum" Youth in science and culture of the XXI century". Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
17. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. Вестник Челябинского государственного университета, (2 (256)), 122-125.
18. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. Общество и инновации, 2(2), 111-117.
19. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в. (pp. 229-231).
20. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80)), 5-10.
21. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 11-18.
22. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
23. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
24. Tuhtasinov, Ithom and Lutfilloeva, Fahriniso, The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
25. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).

26. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
27. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданияй мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.
28. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг ҳозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.
29. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқиқи. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.
30. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.
31. Djurayev, D. M. Linguo-cultural Approach to Teaching Foreign Languages. International Journal on Integrated Education, 3(12), 240-241.
32. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).
33. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
34. Джураев, Д. М. (2017). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
35. Dilshod, D. (2012). 乌兹别克斯坦与中国重要节日的对比 (Master's thesis, 新疆大学).
36. Турниязов, Н. К. (1985). Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчинённого предложения в узбекском языке/-Ташкент. Укитувчи.-1985,-с22.
37. Turniyozov, N., & Rahimov, A. (2006). O'zbek Tili [M].
38. Турниёзов, Н. (1998). Назарий грамматикадан очерклар. Самарқанд: СамДЧТИ, 998, 48.
39. Сулейманова, Н. М., & Турниязов, Н. К. (2018). О ФОРМИРОВАНИИ СТРУКТУРНОЙ СХЕМЫ В ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ СОЗНАНИИ. In Научные школы. Молодёжь в науке и культуре XXI века (pp. 39-42).

40. Турниёзов, Н. (2016). Синтагматик муносабат ва дискурс шаклланишига доир баъзи қайдлар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 10-13.